

“VATANGA XIZMAT QILISH – BUYUK MAQSADIM”

Yulduz Pardayeva

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti, 1-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22825453>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada vatanparvarlik tuyg'usining mohiyati, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif vatanga xizmat qilishni faqat buyuk ishlar bilan emas, balki har bir kishining o'z kasbiga halol va vijdonan yondashishi orqali namoyon bo'lishini asoslaydi. Jadid ma'rifatparvarlari, xususan Behbudiy va Qodiriy merosiga tayangan holda, ilm-ma'rifatning millat taraqqiyotidagi rolini yoritadi. Shuningdek, mustaqil O'zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan ta'lim imkoniyatlari — foizsiz kreditlar, davlat grantlari, "Mutolaa" va "Ibrat farzandlari" kabi platformalar — misolida bugungi davr yoshlarining vatan ravnaqiga qo'shayotgan hissasi ko'rsatib beriladi. Maqola yakunida vatanga xizmat qilish umrbod davom etadigan ma'suliyat ekanligi ta'kidlanadi

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, ma'rifat, jadidchilik, ta'lim, yoshlar tarbiyasi, milliy g'oya, mustaqillik, mas'uliyat, Behbudiy, ilm-fan

Insoniyat yaralibdiki, u vatandan ayro yashay olmaydi. Yuragining bir chetida talpinadigan maskani – Vatani bo'ladi. Xo'sh, "Vatan" – nima o'zi? Nega kishi undan uzoqlashsa diydoriga oshiqadi? Aslida yerning hamma joyi birdek emasmi? Yo'q! Vatan bu – bizni "biz" qilgan makon. O'stirgan, ulg'aytirgan, o'qitgan, "odam" qilgan zamin. Tetapoya yurgan kunimizdan bizni qo'llagan-u, bugungacha o'tgan shirin xotiralarimizni o'zida jamlagan shu muqaddas yurti sevmay bo'ladimi? Uning ravnaqi uchun harakat qilmaslik loqaydlikning yaqqol namunasi emasmi?

O'sib kelayotgan har bir yosh yaratilyotgan sharoitlarga munosib bo'lsam, vatan ravnaqiga o'z hissamni qo'shsam deydi. Vaholanki, Vatanga bo'lgan muhabbat uning sha'niga faqat balandparvoz so'zlar aytish bilan belgilanmaydi. Turli kasb vakillarining o'z ishining fidoyisi bo'lishi xizmatning bir ko'rinishi. Fikrimcha, kishining vatanparvarligi faqatgina katta ishlar qilish bilan emas, balki har jabhada zimmasidagi vazifalarni halol va vijdonan bajarishidan boshlanadi. Shu o'rinda yosh yigit-qizlarning go'zal axloqi-yu, ilmda tengsizligi ham vatan ravnaqi yo'lidagi buyuk maqsadning pillapoyasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, katta maqsadlar ham kichik qadamlardan boshlanadi.

Bu borada tariximizga nazar tashlasak, jadid bobolarimiz ilm-ma'rifat uchun ancha ter to'kkanining guvohi bo'lamiz. Maktab, nashriyot, teatr... bularning barchasi millatni ma'rifatli qilish yo'lidagi harakat edi. Turkiston jadidlarining otasi bo'lmish Behbudiy ta'biri bilan aytganda, maktab – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning durdonasidir. Behbudiy bu fikri bilan serhosil daraxt yetishtirish uchun uni nihollik paytidan parvarish qilishni uqtirmoqda. Ota-onasidan tarbiya, ustozlaridan ta'lim olib ulg'aygan farzand millat koriga yaramay qolmaydi. Mashaqqatli

ilm yo'lga sarflangan sarmoya qisqa muddatda natija bermasligi mumkin, lekin also zo'ye ketmaydi. Ulug' mutafakkirlarimizning millat kelajagini ilm-ma'rifatda ko'rganligi, shu maqsad yo'lida qilgan fidokorona xizmatlari o'sib kelyotgan yosh avlod zimmasiga ezgu g'oyalarni davom ettirish mas'uliyatini yuklaydi.

Bugungi mustaqil O'zbekistonda yoshlarning ilm cho'qqilarini zabt etishi uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Tillarni o'rganish uchun "Ibrat farzandlari", jamiyatda kitobxonlikni yuksaltirish uchun "Mutolaa" va shu kabi ilovalarning foydalanuvchilari soni kundan kunga oshmoqda. Bu esa chekka hududlarda ta'lim olyotgan yoshlarga qulay imkoniyat yaratib, ilmga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun keng yo'l ochildi. Jumladan, o'zim ham bakalavrda foizsiz ta'lim krediti olgan bo'lsam, endilikda magistratura to'lov kontraktim davlatimiz tomonidan to'lab beriladi. Menga berilyotgan imkoniyatlar endilikda faqat shaxsiy manfaatim emas, balki yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishim uchun ham tirgak bo'ladi. Yaratilyotgan erkinliklar, qulay imkoniyatlar o'z oldimizga yanada yuqori maqsadlar qo'yishga undaydi. Biz talabalar nafaqat yaxshi o'qishimiz, balki o'rganganlarimizni amaliyotda ham tatbiq eta olsak oz bo'lsada davlatimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Tarixdan bizga ma'lumki, mustaqillik osonlik bilan qo'lga kiritilmagan. Qanchadan qancha ziyoli millat fidoyilari-yu, mard o'g'lonlar qoni evaziga kelgan. Shunday ekan, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishni o'zi kamlik qiladi. Ularga munosib avlod bo'lish uchun ham ilm-fanda sobit bo'lishimiz shart. Tarixchi sifatida vazifamiz va oldimizga qo'ygan maqsadimiz ham kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yosh avlodga shonli tariximizni o'rgatish, buyuk

siymolarimizdan o'rnak olish va ularga munosib bo'lib ulg'ayish ruhida tarbiyalashdir. Atoqli jadid namoyondalarimizdan Qodiriy so'zlari bilan aytganda:

Kelingiz yoshlar ziyolilar bu kun g'ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz.

O'zi yonib o'zgalarga nur ulashgan shamchiroq misol ustozlarimiz ilm yo'limizni yoritadi. Ularni qo'llab-quvvatlashi, tirgak bo'lishi mashaqqatlarimizni aritmay qolmaydi. Shu o'rinda biz ham mehnat faoliyatimiz davomida havas qilgan ustozlarimizdek bo'lishga intilamiz. Yosh avlodga ta'lim berib, vatanparvarlik ruhida o'stirishga va shu asnoda berilgan imkoniyatlarni oqlashga astoydil harakat qilamiz. Xulosa qilib aytganda, Vatanga xizmat qilish bir kunlik vazifa emas, balki insondan butun umri davomida bilim, halollik, mehnat va fidoyilikni talab qiladigan buyuk maqsaddir. Zero, Vatan ravnaqi uchun qo'shilgan har bir ezgu hissa garchand kichik bo'lsada, oldindagi buyuk taraqqiyotning bir bo'lagidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1999.
3. Qodiriy A. Asarlar to'plami. – Toshkent: "Sharq", 2015.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.